

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc 03/04.06.2021 Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**SAFAROVA MAFTUNA ZOIR QIZI**

**BUXORO VILOYATI ETNOTOPONIMLARINING LINGVISTIK  
TADQIQI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)**

**Safarova Maftuna Zoir qizi**

Buxoro viloyati etnotoponimlarining lingvistik tadqiqi.....3

**Сафарова Мафтуна Зоир кизи**

Лингвистическое исследование этнотопонимов Бухарской области.....23

**Safarova Maftuna Zoir kizi**

Linguistic research of ethnotoponyms of Bukhara region.....45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc 03/04.06.2021 Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**SAFAROVA MAFTUNA ZOIR QIZI**

**BUXORO VILOYATI ETNOTOPONIMLARINING LINGVISTIK  
TADQIQI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Oliy attestatsiyasi komissiyasida №B2023.2.PhD/Fil3301 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Buxoro davlat universiteti veb-sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Kilichev Bayramali Ergashovich**  
filologiya fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Bahriddinova Bashorat Ma'diyevna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Nuritdinova Ra'no Sevdievna**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi ilmiy tashkilot:**


**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «25» iyun soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 221-29-14; faks: (+99865) 221-29-14; e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz))

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (0/158 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 221-29-14; faks: (+99865) 221-29-14; e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «10» iyun da tarqatildi.

(2024-yil «10» iyun dagi 1 -raqamli reyestr bayonnomasi)

**Y.S. Saidov**  
Ilmiy darajalar beruvchi, Ilmiy kengash raisi  
y.b. filologiya fanlari doktori (DSc),  
professor

**A.R. Axmedov**  
Ilmiy darajalar beruvchi, Ilmiy kengash  
ketibi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**M.K. Abuzalova**  
Ilmiy darajalar beruvchi, ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida joy nomlarini ifodalovchi etnonimlar til va nutqdagi onomastik birliklar tizimida alohida o‘rin tutmoqda. Enotoponimlar uzoq davrlardan beri xalqlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, milliy-madaniy, etimologik, lingvistik, tabiiy-geografik xususiyatlarini o‘zida aks ettirishi bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Onomastik tizimning bir qismini tashkil etuvchi etnotoponimlarining semantik, nominatsion-motivatsion vazifalari millat tili va madaniyati, tarxi bilan aloqadorlikda yaxlit bir tizimni tashkil etib kelmoqda. Shu sababdan etnonim asosli joy nomlarini tadqiq qilish tillarning kelib chiqishini, shakllanish tarixini, o‘zbek tilida uzoq tarix davomida yuzaga kelgan o‘zgarishlarni aniqlashda dolzarblilik kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida etnotoponimiya tilshunoslikning onomastika sohasi tarkibida muhim yo‘nalish sifatida tobora rivoj topib bormoqda. Etnonimlar atoqli otlar hosil bo‘lishida, bir qator nomlar guruhlarining yuzaga kelishida muhim o‘rin tutmoqda. Etnonimlar bugungi kungacha insoniyat tarixi, tili, milliy va madaniy merosini avlodlarga yetkazib, qimmatli lingvistik manba sifatida xizmat qilmoqda. Enotoponimlar o‘z tarkibida turli-tuman urug‘ va qabilalarga xos bo‘lgan til elementlarini saqlab, shu xususiyati bilan mavjud millat tilining yashovchanligini ta‘minlab kelmoqda. Shuningdek, toponimik leksikani o‘rganish orqali millat vakillarining qadimgi davrlardan hozirgi kungacha bo‘lgan til xususiyatlarini leksik, grammatik imkoniyatlarini tadqiq etishni taqozo qilmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda o‘zbek toponimiyasining boy va serqirra materiallarini to‘plash va tadqiq qilish asosiy ilmiy masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, Prezidentimiz ta‘kidlaganlaridek, «Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlarga qoldirish, davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir»<sup>1</sup>. Shu sababdan, O‘zbekistonning bir qator viloyatlari, mintaqalari toponimiyasini lingvistik, tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilish, joy nomlarini aniqlash, qayta nomlash, nomlarning asossiz o‘zgartirilishini oldini olish kabi masalalar o‘z yechimini kutmoqda. Shu bilan bir qatorda Buxoro viloyati etnotoponimlarini til lug‘at tizimida tutgan o‘rni va o‘ziga xosliklarini aniqlash, tarixiy-siyosiy jarayonlarning etnotoponimlar orqali tilga ta‘sirini o‘rganishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi O‘RQ-303-sonli “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son, 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi “Fanlar

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. I jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 29.

akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2789-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda "Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 984-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida onomastika sohasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Tilshunos olimlar A.V.Nikonov, V.D.Belenkaya, M.V.Karpenko, E.M.Murzayev, S.G.Vaselevskiy, A.I.Yashenko, L.M.Shetininlarning<sup>2</sup> ilmiy izlanishlari onomastik tadqiqotlarga bag'ishlangan. Bu singari tilshunoslarning tadqiqot ishlari onomastika, xususan, toponimiya, etnotoponimiya sohasining rivojida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida V.A.Juchkevich, V.D.Bondaletov, A.V.Superanskaya, N.V.Podolskaya, M.V.Gorbanevskiy, N.E.Grigoreva, Keng-Fong Pang, Adrean Koopmanlarning<sup>3</sup> ham xizmatlari beqiyos. Ularning ilmiy izlanishlari soha rivoji uchun alohida e'tirofga loyiq. Shu sababli ularning bu sohadagi tadqiqotlarini keltirib o'tish o'rinli.

O'zbek tilshunosligida toponimik tadqiqotlar XX asrning 60-yillaridan rivojlana boshladi. Jumladan, Samarqand (1969), Buxoro (1974), Guliston (1989) shaharlarida bo'lib o'tgan onomastik konferensiyalarda o'zbek toponimikasining dolzarb muammolari muhokama etildi. Turkiy, ya'ni o'zbek etnonimlari xususidagi ma'lumotlar qadimgi turkiy tilga oid yozma yodgorliklarda, Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abulg'oziy Bahodirxonning asarlarida<sup>4</sup>, xuddi shunday o'rta asrlarga mansub fors va arab tilida yozilgan ko'pgina tarixiy bitiklarda saqlanib, bugungacha yetib kelgan.

---

<sup>2</sup> Никонов В.А. Введение в топонимику. – Москва: Наука, 2011. – 184 с.; Беленькая В.Д. Топонимы в составе лексической системы языка. – Москва: Наука, 1969. – 224 с.; Карпенко М.В. Русская антропонимика. – Одесса, 1970, – 42 с.; Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. – Москва: Мысль, 1974. – 382 с.; Васеловский С.Г. Ономастикон. Древнерусские имена, прозвища и фамилии. – Москва: Наука, 1974. – 384 с.; Ященко А.И. Лингвистический анализ микротопонимов определенного региона. – Вологда, 1977. – 60 с.; Щетинин Л.М. Русские имена: Очерки по донской антропонимии. – Ростов-на-Дону, 1978. – 222 с.

<sup>3</sup> Жучкевич В.А. Общая топонимика. – Минск, 1980. – 432 с.; Бондалетов В.Д. Русская ономастика. – Москва: КД Либроком, 1983. – 223 с.; Суперанская А.В. Что такое топонимика? – Москва, 1985. – 185 с.; Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – Москва: Наука, 1988. – 187 с.; Горбаневский М.В. Русская городская топонимия. – Москва: Наука, 1996. – 160 с.; Keng-Fong Pang On the ethnonym "Utsat", Papers in Southeast Asian..., 1998. – 18 p.; Григорьева Н.Е., Этноним "Русские" в лексической системе псковских говоров, <https://pskgu.ru>. 2015; Adrean Koopman (The use of the ethnonym 'Hottentot' in the bird names 'Hottentot Teal' and 'Hottentot Buttonquail', – Ostrich, 2021. – 11 p.

<sup>4</sup> Кошғарий Махмуд. Девону луғотит турк. 3 томли. I том. Тошкент: Фан, 1960, 1963. – Б. 163-164; Навоий асарлари лугати. Алишер Навоий асарлари ўн беш томлигига илова. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги

Etnonim va etnotoponimiya sohasiga oid ma'lumotlarni X.Doniyorov, A.Ishayev, K.Marqayev, A.A.Ergashev, A.Turobov, A.Otajonovalarning<sup>5</sup> tadqiqotlaridagi ayrim qaydlarni e'tiborga olmaganda etimologik, lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etilmagan.

Shuni qayd etish lozimki, soha bo'yicha o'ndan ortiq dissertatsiyalar tadqiqi amalga oshirildi, lug'atlar, monografiyalar nashr etildi. Shunday bo'lsa-da, hozirgi kunga qadar aynan Buxoro viloyati toponimiyasi materiallari, xususan, etnonim va etnotoponimlari to'la to'planmagan va o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek tilshunosligida til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari" (2022-2025-yy) yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Buxoro viloyatidagi etnotoponimlarning lingvistik jihatlari, ularning semantik va etimologik xususiyatlarni aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

o'zbek etnotoponimlarining o'rganilish tarixi va asosiy muammolarini o'rganish;

etnotoponimlarning til lug'at tizimidagi o'rnini aniqlash va tarixiy-lisoniy nuqtayi nazardan tahlil etish;

Buxoro viloyati hududidagi etnonim va etnotoponimlar materiallarini to'plash va tasniflash;

etnonimlar asosida shakllangan toponimlarni ma'noviy-mavzuviy guruhlariga ajratish;

etnos nomining atoqli otga o'tishidagi tarixiy hamda ijtimoiy sabablarini yoritish va unutilayotgan etnotoponimlarni tarixiy manbalar asosida etimologiyasini aniqlash, qayta tiklash;

etnotoponimlarning umumturkiy xususiyatlariga alohida e'tibor qaratish, grammatik tuzilishi va yasalish xususiyatlarini tadqiq qilish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Buxoro viloyati hududida aniqlangan etnonim asosli toponimlar tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** Buxoro viloyati hududidagi etnotoponimlarni semantik, etimologik hamda grammatik-derevatsion jihatdan tadqiq qilish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Etnotoponimlarni tadqiq qilishda semantik, etimologik, komponent tahlil, tasniflash, tavsiflash, statistik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

---

Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 517 б.; Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Фан, 1960. –509 б.; Абулғозий Баҳодирхон. Шажарайи тарокима. – Тошкент: Чўлпон, 1995. – Б.98.

<sup>5</sup> Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. Иккинчи нашри. – Тошкент: Наврўз, 2017. – Б. 58; Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 10-12; Марқаев К. Ўзбек тили этнонимларининг лисоний таҳлили: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 26 б.; Эргашев А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 24 б.; Тurobov A. Самарқанд вилояти этноним ва этноойконимларининг таҳлили: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 22 б.; Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари ва уларнинг луғавий асослари: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 24 б.

etnonim, etnotoponim tushunchalarining til tizimidagi oʻrni, etnos nomining atoqli otga oʻtish jarayoni, ularning shakllanishiga asos boʻlgan tarixiy hamda ijtimoiy sabablar, hudud aholisining til xususiyatlari, turmush tarzi, milliy va madaniy anʼanalari ularning semantik-etimologik xususiyatlari asoslangan;

Buxoro viloyat 593ta etnotoponimlarning derevatsion-tarkibiy xususiyatlari, ular yasalishining kompozitsiya, onomastik konversiya yoki leksik-grammatik usul orqali ot+ot shaklidagi etnotoponimlar, sifat+ot shaklidagi etnotoponimlar, ot+sifat shaklidagi etnotoponimlar, son+ot shaklidagi etnotoponimlar, tuzilishi jihatdan sodda (tub; yasama) hamda qoʻshma tarkibli etnotoponim guruhlari aniqlangan;

hududdagi etnotoponimlarning struktural komponentlari, leksik-semantik jihatdan rang (oq, qora, qizil, sariq) bilan bogʻliq lugʻaviy birliklar, miqdor ifodalovchi (*toʻrt, besh, olti, yetti, qirq, yuz, ming*) soʻzlari bilan bogʻliq etnonimlar, biror predmetga asoslangan totemistik qarashlar natijasida “ilohiydashishi”, “muqaddaslashishi” oʻtmishda turkiy xalqlar hayotida mifologik, diniy, badiiy, falsafiy tushunchalar asosida ajratilib, ularning tarixiy-etimologik asoslari, diaxron va sinxronligi oʻzbek tili toponimikasi nazariyasiga muvofiq dalillangan;

viloyatdagi etnotoponimlarning lugʻaviy qatlamlarga munosabati, ularning turkiy, arab, moʻgʻul va boshqa millat nomlarining nominatsion-motivatsion asoslari, nomlarning oʻz va oʻzlashganligi, derevatsion-tarkibiy xususiyatlari, nom yasalishidagi mahsuldor usullar belgilangan boʻlib, etnotoponimlarning tarkibiy xususiyatlari aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Buxoro viloyati etnotoponimlarining lingvistik xususiyatlari bilan bogʻliq toʻplangan materiallar, qoʻyilgan muammolarni tadqiq etish natijasida chiqarilgan xulosa va umumlashtirilgan fikrlar hozirgi oʻzbek tilshunosligi uchun muhim ilmiy maʼlumotlarni berishi, shu sohani oʻrganuvchi tadqiqotchilar uchun muhim manba boʻlib xizmat qilishi dalillangan;

Kuzatishlar orqali toʻplangan lisoniy maʼlumotlar xalqimizning nom qoʻyish sanʼati va unda insonlarning maʼnaviyati, madaniyati, milliy ongning namoyon boʻlishi kabi masalalarni oʻzida mujassamlashtirgan etnotoponimlar xususida maʼlumot berilganligi hamda Buxoro viloyatidagi joy nomlarining turkiy urugʻ va qabilalar, maʼlum millat, xalq nomlari asosida yuzaga kelganligi aniqlangan;

Xalqimizning milliy til boyligi, tarixi sanalgan toponimik obyekt nomlarini asossiz oʻzgartirmaslik kerakligi, ularning etimologiyasi, lisoniy xususiyatlarini oʻrganish til lugʻat boyligimizning oshishiga xizmat qilishi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** qoʻllanilgan usul, yondashuv, nazariy maʼlumotlarning ishonchli ilmiy manbalarga tayanilganligi, foydalanilgan tahlillar semantik, etimologik, komponent tahlil, tasniflash, tavsiflash, statistik tahlil metodlari vositasida tahlil etilganligi, viloyat etnotoponimlari masalasiga oʻzbek tilining tabiatidan kelib chiqib yondashilganligi, mavzu yuzasidan chop etilgan respublika va xalqaro miqyosidagi ilmiy maqolalarda keltirilgan nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan ilmiy xulosalar va muhim nazariy umumlashmalardan boshqa viloyatlar etnonim va etnotoponimlarini o‘rganishda, o‘zbek toponimikasiga oid darslik va qo‘llanmalar yozishda, oliy o‘quv yurtlarida Buxoro viloyati etnonim va etnotoponimlari bo‘yicha maxsus kurslarni o‘qitishda, nafaqat tilshunoslik sohasi, balki ko‘pgina ijtimoiy fanlar, tarix va geografiya yo‘nalishlarida “Toponimika”, “Buxoro toponimikasi”, “Tarixiy o‘lkashunoslik” fanlarini o‘qitishda, maktablarda joy nomlariga doir mavzularni, tarix, geografiya fanlarini o‘qitishda foydalanish mumkin. Bundan tashqari tadqiqot materiallari toponimik komissiyalarga aholi yashash joylari va boshqa toponimik obyektlarga nom berish, joy nomlarini tiklash, yangilash, o‘zgartirish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilishi jihatdan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Buxoro viloyati etnotoponimlarining lingvistik tadqiqini o‘rganish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

etnonim, etnotoponim tushunchalarining til tizimidagi o‘rni, etnos nomining atoqli otga o‘tish jarayoni, ularning shakllanishiga asos bo‘lgan tarixiy hamda ijtimoiy sabablar hudud aholisining til xususiyatlari, turmush tarzi, milliy va madaniy an‘analari, semantik-etimologik xususiyatlariga bog‘liq xulosalardan A-OT-2021-2 raqamli “Tibbiyotga oid atamalar elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy tadqiqotlari loyihasi doirasida dissertatsiya ilmiy natijalaridan (2020-2021-yy.) foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2023-yil 13-oktabrdagi 01-04/3609-son ma‘lumotnomasi). Natijada, dissertatsiyadagi hudud aholisining til xususiyatlari, nom qo‘yish madaniyati, milliy an‘analariga tayanilgan;

Buxoro viloyat 593 ta etnotoponimlarning derevatsion-tarkibiy xususiyatlari, ular yasalishining kompozitsiya, onomastik konversiya yoki leksik-grammatik usul orqali ot+ot shaklidagi etnotoponimlar, sifat+ot shaklidagi etnotoponimlar, ot+sifat shaklidagi etnotoponimlar, son+ot shaklidagi etnotoponimlar, tuzilishi jihatdan sodda (tub; yasama) hamda qo‘shma tarkibli etnotoponim guruhlariga oid ma‘lumotlardan Yo-A-1-9 raqamli “Aholining turli qatlamlariga psixologik yordam ko‘rsatish” mavzusidagi fundamental loyihani amalga oshirishda (2016-2017-yy.) foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2023-yil 31-martdagi 04-04/01-440 01-son ma‘lumotnomasi). Natijada Buxoro viloyati aholisi orasida uchragan turli millat va xalq nomlari lingvistik materiallarini boyitishda manba bo‘lgan;

hududdagi etnotoponimlarning struktural komponentlari, leksik-semantik jihatdan rang (oq, qora, qizil, sariq) bilan bog‘liq lug‘aviy birliklar, miqdor ifodalovchi (*to‘rt, besh, olti, yetti, qirq, yuz, ming*) so‘zlari bilan bog‘liq etnonimlar, biror predmetga asoslangan totemistik qarashlar natijasida “ilohiylashishi”, “muqaddaslashishi” o‘tmishda turkiy xalqlar hayotida mifologik, diniy, badiiy, falsafiy tushunchalar asosida ajratilib, ularning tarixiy-etimologik asoslari, diaxron va sinxronligiga oid ma‘lumotlardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining “Assalom, Buxoro”, “Najot bilimda” ko‘rsatuvlari va “Asrlarning asraganlari”

radioeshittirishlari ssenariylarida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 14-noyabrdagi 02-09-317-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ushbu teleko‘rsatuvlar ilmiy dalillar asosida boyitilib, ilmiy-ommabop xususiyatlari ortishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 8ta ilmiy-amaliy anjuman va seminar, jumladan, 3ta xalqaro va 5ta respublika ilmiy-nazariy konferensiyasida aprobatsiyadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 30dan ortiq ilmiy ish chop ettirilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11ta maqola (shu jumladan, 18tasi respublika va 2tasi xorijiy jurnal va to‘plamlarda) nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 143 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Tilshunoslikda etnonim va etnotoponimlarning tadqiqi”** deb nomlangan. Bobning birinchi paragrafi *“Etnonim, uning tilshunoslikdagi tadqiqi”* nomini olgan bo‘lib, unda urug‘ va qabila nomlarini o‘rganish va ularni tarixiy, ma’naviy xazina sifatida kelajak avlodga yetkazib berish fan va insoniyat uchun birdek muhimligi, ularda ajdodlar ruhi, tili va milliy ong tushunchasining yashashi ta’kidlangan. Buxoro viloyati ham qabila va urug‘larga boy hudud hisoblanadi. Chunki Kichik Osiyoda yashagan shumer, akkad, xurit, xett, ossuriy kabi tillarda so‘zlashgan eng qadimgi xalqlar orasida bugungi turkiylarning ajdodlari yashagan<sup>6</sup>. Bundan ko‘rinadiki, etnonimlar juda qadimiy. Etnonim tushunchasini turli manbalar asosida o‘rganish ilmiy tadqiqotning mukammallashishiga xizmat qiladi. Insonlar millat, xalq, elat, qabila, urug‘, shox singari guruhlariga birlashgan holda ma’lum bir jamiyatda ijtimoiy, madaniy jihatdan uyushib yashaydi. Qadimgi davrlardan hozirga qadar o‘zbeklar tarkibida *saroy, qo‘ng‘irot, do‘rman, nayman, barlos, minglar, mang‘it* kabi yirik qabila va urug‘lar o‘z ichida *shox, to‘p, to‘par, tira, toifa, avlod, qavm* singari kichik tarmoqlarga bo‘lingan. Shu kabi nomlar *etnonimiyani* tashkil etadi. Etnonim yunoncha *ethnos* – “xalq” va *onim* – “nom” so‘zlaridan tarkib topgan. Etnonim etnosning o‘zi tomonidan tanlangan bo‘lsa – avtoetnonim; o‘zgalar tomonidan

---

<sup>6</sup> Туробов А.М. Самарқанд вилояти этноним ва этноойконимлари: Филол. фанл. номз. ... дисс. – Тошкент, 1999. – Б.15.

nomlangan bo'lsa – allogen (ekzogen) etnonim deb yuritiladi<sup>7</sup>. Etnonimlar tarkibida avtoetnonimlardan ko'ra, allogen etnonimlar miqdoran ko'p, chunki ular, asosan, boshqa urug'-qabilalar tomonidan nomlangan. Etnonim atamasi xalq, qabila, urug' va boshqa xil etnik uyushmalarning nomi sifatida ham izohlangan<sup>8</sup>. Rus tilida etnik so'zi bilan etnik nom, etnik dialekt, etnolingvistik, etnonimika atamalari izohlanib, etnonimika atamasi xalqlarning nomini o'rganuvchi antroponimikaning bir bo'limi deb sharhlangan<sup>9</sup>. O'zbek tilida *qavm* (bir avloddan tarqalgan o'zaro qarindoshlik munosabatlari bilan bog'langan kishilar birlashmasi; *qabila* (urug'-aymoq, bir ota-onadan tarqalgan bir necha guruhlar uyushmasi, etnik birlik hamda nasl-nasab jihatdan bir xil bo'lgan kishilar toifasi, guruhi); *elat* (kishilarning millat shakliga kelmasdan oldingi tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy hamda hududiy birligi); *millat* (kishilarning barqaror tarixiy, umumiy ijtimoiy, iqtisodiy turmushi hamda tili, hududiy, milliy va madaniy o'ziga xosligi jihatdan tashkil topgan ijtimoiy taraqqiyot shakli) tushunchalari farqlanadi. Millat bo'lib shakllanish uchun uzoq davom etgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy jarayonlarni bosib o'tgan bo'lishi, shu bilan birgalikda hududi, tili va o'ziga xos milliy xususiyatlarga ega bo'lishi ham talab etiladi. Millat qabila, qavm, elat kabi tushunchalaridan keng tushuncha hamda keyingi bosqich sanaladi.

Etnonimlarni tarixiy asosda o'rganish uzoq davrlarni qamrab oladi. Hozirgi Markaziy Osiyo hududlarida miloddan avval ham anchagina turkiy qabilalar yashaganligini Gerodotning “Tarix”, Strabonning “Geografiya”, Pompey Trogning “Filipp tarixi” kabi asarlari orqali bilishimiz mumkin. Bu asarlarda *skif*, *sak*, *massaget* singari turkiy qavmlar bilan birga boshqa xalqlarga tegishli bo'lgan *toxar*, *so'g'dlar* haqida ham ma'lumotlar keltiriladi<sup>10</sup>. Markaziy Osiyo olimlari, xususan, Ibn Xavqal, Mahmud ibn Vali, Mahmud Koshg'ariy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida etnonimlar haqida qiziqarli fikrlar mavjud. Masalan, qomusiy alloma Abu Rayhon Beruniy qadimgi xalqlar va ularning nomlari haqida ma'lumot keltiradi. *Os* va *alon* eron xalqlari urug'lari hisoblanib, o'zbek va qoraqalpoq xalqlari orasida uchraydi. Bu urug'lar haqida birinchi marta Abu Rayhon Beruniy ma'lumot beradi. Amudaryo o'z oqimida to'siqlarga uchrab so'l tomonga – qipchoqlar yurtiga oqa boshlagach, bu yerda yashagan aholi Xazar (Kaspiy) dengizi qirg'oqlariga ko'chdilar, – deydi Beruniy. Ularning *alon* va *os* urug'lari ekanligini ta'kidlaydi<sup>11</sup>. Tilshunos va etnograf olim X.Doniyorov o'zining “O'zbek xalqining shajara va shevalari” deb nomlangan kitobida etnonimlarni tadqiq etishga asos bo'luvchi qadimiy manbalarni uch guruhga bo'lib o'rganish mumkinligini tasniflab bergan. Birinchi qismiga turkolog olim va tarixchilar tomonidan yozilgan “Devonu lug'otit turk”, “Jome-at tavorix”, “Ravzat-us safo”, “Zafarnoma”, “Boburnoma”, “Shajarayi turk”, “Shajarayi tarokima”, “Tarixi Abulxayrxon”, “Shayboniynoma”,

<sup>7</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдди. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – Б. 253.

<sup>8</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати. 5 жилдди. 5-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 48.

<sup>9</sup> Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: СЭ, 1966. – С. 521.

<sup>10</sup> Туробов А. Самарқанд вилояти этноним ва этноойконимларининг таҳлили: Филол. фанл. номз. ... дисс. – Тошкент, 1999. – Б. 16.

<sup>11</sup> Аристов Н.А. Заметки об этническом составе тюркских племен и народности и сведения об их численности // Живая старина. – Санкт-Петербург, 1896. – № 3-4. – С. 277.

“Abdullanoma”, “Tarixi Muqimxoniy”, “Tarixi Abulfayzxon”, “Tarixi Salotini mang‘itiya”; ikkinchi va uchinchi guruhlariga esa akademik V.V.Radlov, N.A.Aristov, N.I.Zarubin, V.V.Grigorev, G‘ozi Olim, A.Y.Yakubovskiy, A.D.Grebenkin, N.V.Xanikov, A.P.Xoroshxin, N.P.Katanov, N.Y.Bichurin, D.N.Logofet, A.Borns, V.M.Vyatkin, L.P.Potopov, I.I.Magidovich, M.G‘.Vahobov, L.V.Oshanin, B.X.Karmisheva, K.Najimov, V.G.Moshkova, S.M.Abramzon, N.N.Muravyov, G.I.Danilevskiy, N.A.Baskakov, A.Y.Zuyev, S.Gubayeva, B.Ahmedov, K.Shoniyozov kabi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarini kiritish mumkin<sup>12</sup>. XIX asr tarixiy voqealarini, urug‘ va qabilalarning bo‘linishi va milliy-madaniy xususiyatlarini yoritishda N.Xanikovning “*Buxoro xonligining tavsifi*” kitobi ahamiyatlidir. Asarda 92 qavm va uning shoxobchalari (*mang‘itlarning oq mang‘it, to‘q mang‘it, qora mang‘it, qo‘ng‘irotlarning qonjig‘ali, qo‘shtamg‘ali, otinli, chuvak tamg‘ali*) xususida ma‘lumotlar berilgan<sup>13</sup>. Turkolog olim akademik V.V.Radlov turkiy xalqlarning tillarini ularning urug‘ va qabila tillari bilan bog‘lab o‘rgandi hamda turkiy xalqlarning etnografiyasi sohasida anchagina ilmiy izlanishlar olib bordi. Etnotoponimiya sohasida S.Qorayev, A.Otajonova Xorazm viloyati etnotoponimlarini, N.Oxunov Farg‘ona etnooykonimlarini, A.Turobov Samarqand viloyati etnooykonimlarini, A.Ergashev Andijon viloyati etnotoponimlarini monografik tarzda tadqiq etgan<sup>14</sup>.

Keyingi guruhga respublikamiz mustaqillikka erishgandan to bugungi kungacha etnonimlarning tadqiqini amalga oshirgan olimlarimizni sanab o‘tishimiz mumkin. Masalan, X.Doniyorov, S.Qorayev, S.Karimov, B.Ahmedov, A.Asqarov, E.Begmatov, T.Nafasov, N.Oxunov, A.Turobov, K.Marqayev, N.Begaliyev, A.Otajonova, B.Kilichev kabilar. Bular, asosan, mustaqillikdan keyingi davrlarda etnonimlar tadqiqi bilan shug‘ullanishgan bo‘lib, ularning ishlari bugungi kunda etnotoponimiya sohasida ko‘plab tadqiqotlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Bobning ikkinchi paragrafi “*Etnonim tushunchasi, uning ot so‘z turkumidagi o‘rni*” deb nom olgan. Har qanday til lug‘at tizimi va uning tarkibidagi lisoniy vositalarning qo‘llanilishi va vazifasiga ko‘ra xususiyatlarini aniqlash uchun tilshunosilikdagi barcha lug‘aviy boylik turli usul va yo‘llar orqali ma‘lum guruhlariga, qatlam hamda sathlarga, mavzulariga ko‘ra tarmoqlarga ajratiladi. A.V.Superanskaya bu haqda fikr yuritib, o‘zining qator xususiyatlari bilan turdosh otlar sinfiga qarshi turuvchi atoqli otlar maxsus turkumning har bir tipida mavjudligi umume’tirof etilgan<sup>15</sup> degan fikrni keltiradi. Turdosh va atoqli otlar jahon tilshunosligida keng tadqiq etilgar dolzarb masalalardan biridir. Masalan,

---

<sup>12</sup> Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 32.

<sup>13</sup> Туробов А.М. Самарқанд вилояти этноним ва этноойконимлари: Филол. фанл. номз. ... дисс. – Тошкент, 1999. – Б. 20.

<sup>14</sup> Қораев С. Этнонимика. – Тошкент: Ўзбекистон, 1979. – 24 б.; Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари ва уларнинг луғавий асослари. Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 24 б.; Хоразм этнотопонимлари. – Тошкент: Фан, 1997. – 129 б.; Туробов А. Самарқанд вилояти этноойконимларининг таҳлили: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 122 б.; Эргашев А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи: Филол. фанл. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 2012, – 128 б.

<sup>15</sup> Суперанская А.В. Апеллятив – онома // Имя нарицательное и собственное. – Москва: Наука, 1978. – С. 5.

tilshunos olim Y.Kurilovich turdosh otlarni “*marginal leksika*”<sup>16</sup> ( *barcha uchun faol ishlatiluvchi leksika*) deb atagan hamda u guruhga atoqli otlarni ham kiritgan. Ammo A.A.Reformatskiy o‘z qarashlarida til tug‘at tarkibining asosiy qismini turdosh otlar tashkil etishini, atoqli otlarni kiritishda isbot talab etilishini ifodalaydi<sup>17</sup>. Etonimlarda turdosh otlarga xos xususiyat yaqqol aks etgan deyish mumkin. Demak, etnonimlar atoqli otlar tizimida o‘rganilmaydi, chunki yuqorida aytib o‘tganimizdek, ular muayyan to‘da, etnik uyushmaning umumiy nomini ifodalab keladi: *o‘zbeklar, qozoqlar, qipchoqlar, mo‘g‘ullar, naymanlar* singari. A.A.Reformatskiy, V.D.Bondaletov<sup>18</sup> va bir qancha olimlarning ilmiy qarashlariga ko‘ra hali ham bu masala munozarali bo‘lib kelmoqda. Ba’zi onomastik tadqiqotlarda etnonimlar atoqli otlar tizimida keltiriladi. Shuningdek, qozoq olimi T.Jonuzoqov ilmiy ishlarida etnonimikani onomastikaning bo‘limlari, ya’ni toponimika, antroponimika qatoriga qo‘yadi va *qangli, qipchoq* urug‘lari nomini etnoantroponim sifatida bosh harf bilan yozish taklifini beradi<sup>19</sup>. A.M.Gurbanov esa ozarbayjon tilidagi onomastik birliklarni tasnif qilgan ekan, etnonimikaga ham nomshunoslikning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraydi va ularni “xususiy so‘z”, ya’ni atoqli ot sanab, onomastik ko‘lam doirasida o‘rganadi<sup>20</sup>. V.D.Bondaletov A.A.Belitskiyning “bu ikki kategoriya so‘zlar o‘rtasida turuvchi leksemalarga katoykonimlar, etnonimlar (umumiy termin: koykonimlar) sanaladi”<sup>21</sup> degan fikriga tayanganligini asoslaydi. Olimning asoslariga ko‘ra, etnonimlar ma’lum vazifa bajarish xususiyati jihatdan hayvonlar, o‘simliklar, kimyoviy elementlar, minerallar kabi nomlar apellyativ leksika hisoblanadi. Xullas, V.D.Bondaletov fikriga ko‘ra, A.A.Belitskiy atoqli va turdosh otlar orasida turuvchi lug‘aviy birlik etnonimlar ekanligini ta’kidlagan<sup>22</sup>. V.A.Nikonov ilmiy izlanishlarida etnonimlarni atoqli ot sifatida baholaydi<sup>23</sup>. Shuningdek, Sh.Japarov ham etnonimga atoqli ot sifatida qaraydi<sup>24</sup>. Ammo A.V.Superanskaya ularni turdosh ot qatoriga qo‘shadi, chunki etnonim kishilarni donalab emas, balki guruhlab ataydi<sup>25</sup>. Bizningcha, etnonimlar turdosh ot sifatida baholanishi lozim, chunki ularda bir turdagi predmetdan birini ajratib nomlash xususiyati mavjud emas.

Bobning uchinchi paragrafida “*Tilshunoslikda etnotoponim tushunchasi*” bayon etilgan. Ma’lumki, toponimlar atoqli otlar tizimida muhim o‘rin tutadi. Toponimlar doirasiga xalq, millat, qabila, elat, urug‘ nomlari vositasida nomlangan joy nomlari ham kiradi. Ushbu nomlarni ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan o‘rganuvchi soha etnotoponimika deb ataladi<sup>26</sup>. O‘zbek xalqining etnik tuzilishi

<sup>16</sup> Курилович Е. Положение имени собственного в языке // Очерки по лингвистике. – Москва, 1962. – С. 254.

<sup>17</sup> Реформатский А.А. Топономастика как лингвистический факт // Топонимика транскрипция. – Москва: Наука, 1964. – С. 11.

<sup>18</sup> Бондалетов В.Д. Русская ономастика – Москва: Просвещение, 1983. – С. 9.

<sup>19</sup> Джанузакоев Т. Қазақ есімдерінің тарихы. – Алматы: Ғылым, 1971. – Б. 3; 179.

<sup>20</sup> Гурбанов А.М. Муасир азарбайжан адаби дили. – Баку: Маариф, 1985. – Б. 249.

<sup>21</sup> Бондалетов В.Д. Русская ономастика. – Москва: Просвещение, 1983. – С. 9.

<sup>22</sup> Белецкий А.А. Лексикология и теория языкознания (ономастика). – Киев: КГУ, 1971. – С. 24.

<sup>23</sup> Никонов В.А. Этнонимия // Этнонимы. – Москва: Наука, 1970. – С. 12.

<sup>24</sup> Жапаров Ш. Кыргыз адам аттары. – Фрунзе: Ылим, 1989. – Б. 7-8.

<sup>25</sup> Суперанская А.В. Групповые обозначение людей в лексической системе языка // Имя нарицательное и собственное. – Москва: Наука, – С. 59-61.

<sup>26</sup> Эргашев А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи: Филол. фанл. номз. ... дисс... – Тошкент, 2012. – Б. 71.

hamda etnotoponimlar masalasida S.Gubayeva izlanish olib borgan<sup>27</sup>. Etnotoponimlar xususidagi ilk fikr-mulohazalar Ibn Havqal (X asr)ning “Surat ul-arz” (“Yer kurrasining surati”), Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror”, Muhammad Tohirning “Ajoyib at-tabokat”, Xudoyberdi ibn Qo‘shmuhammad Xivaqiyning “Dili g‘arib”, M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarlarida bayon etilgan<sup>28</sup>. Ushbu asarlarda turli urug‘ va qabilalar, xalqlarning yashab turgan joyi ularning nomi asosida nomlanishi, *naymanlar yeri*, *qipchoqlar bozori* tarzida atalishi xususida qimmatli ma‘lumotlar bayon etilgan. Turkiy tillarda ham etnotoponimlarni tadqiq etuvchi bir qancha ishlar paydo bo‘ldi. Xususan, T.Jonuzoqov, E.Qoychiboyev, A.Abdurahmonov, S.Otaniyozov, D.Aytmurodov, S.Amonjолоv, M.Mamedovlarning ilmiy tadqiqotlarida etnotoponimlar masalasiga tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashilgan<sup>29</sup>. Toponimlarni o‘rganish maqsadida 1985-yil Jizzaxda, 1987-yil Gulistonda, 1989-yili Qarshida ilmiy anjumanlarda etnotoponimlar, etnooykonimlar, etnogidronimlar tadqiqiga qaratilgan ishlar bayon etildi. S.Qorayev o‘z tadqiqotlarida etnotoponimlarning lingvistik xususiyatlarini tahlil etgan<sup>30</sup>. T.Nafasovning ilmiy izlanishlarida ham etnotoponimlar borasida e‘tiborga loyiq qarashlar bayon etilgan<sup>31</sup>. Xorazm va Qoraqalpog‘iston hududlari shevalarini to‘plab o‘rgangan tilshunos olim A.Ishayev atoqli otlarni yig‘ish, etnonim va etnotoponimlarning til xususiyatlarini ifodalash, lug‘aviy ma‘noga asos bo‘luvchi etimonini aniqlashga harakat qilgan<sup>32</sup>. Etnotoponimlarni tadqiq etish masalasining rivojini toponimshunos T.Rahmatovning ilmiy ishlarida ham ko‘rish mumkin. U tadqiqotlarida etnotoponim termini o‘rniga “etnonimlardan yasalgan toponimlar” jumlasini ishlatgan bo‘lsa-da, urug‘-qabila nomlaridan toponimlarning hosil bo‘lishini lingvistik hodisa sifatida baholagan. Samarqand viloyati bo‘yicha to‘plagan materillari orasida ikki yuzdan ortiq etnotoponim borligini isbotlab bergan<sup>33</sup>. Z.Do‘simov atoqli otlar tizimini yanada faollashtirdi hamda toponimlarni leksik-semantik jihatdan tahlil qilib, kelib chiqishiga ko‘ra antropotoponimlar,

<sup>27</sup> Губаева С. Этнонимы в топонимии Ферганской долины: Автореф. дисс. ... канд.филол. наук. – Ташкент, 1973. – С. 23; Основные направление этнических процессов Ферганской долине в XIX начало XX в: Автореф. дисс. ... докт. истор. наук. – Москва, 1992. – С. 30.

<sup>28</sup> Туробов А. Самарқанд вилояти этноним ва этноойконимларининг тахлили: Филол. фанл. номз. ... дисс. – Тошкент, 1999. – Б. 22.

<sup>29</sup> Джанузакоев Т. Этюды о казакских этнонимах//Ономастика Средней Азии. – Фрунзе, 1980. – С. 16-24; Койчубаев Е. Краткий толковый словарь топонимов Казахстана. – Алма-Ата: Наука, 1974. – 274 с.; Абдурахмонов А. Казахстан этнотопонимикасы. – Алма-Ата: Ылым, 1975. – 214 с.; Атанязов С.А. Этнонимы в туркменском языке: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Ашхабад, 1990. – 44 с.; Айтмуратов Д. Тюркские этнонимы. – Нукус: Каракалпакистан, 1986. – 231 с.; Амонжолов С. Вопросы диалектологии и истории казахского языка. – Алма-Ата, 1959. – 450 с.; Мамедов М. Халқ номлари жой номларида. – Тошкент: Фан, 1981. – 46 б.

<sup>30</sup> Караев С. Опыт изучения топонимии Узбекистана: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1969. – 26 с.; Географик номларнинг маъносини биласизми? – Тошкент: Ўзбекистан, 1970. – 190 б.; Географик номларнинг маъноси. – Тошкент: Ўзбекистан, 1978. – 201 б.; Тошкент топонимлари. – Тошкент: Фан, 1991. – 62 б.; Этнонимика. – Тошкент: Ўзбекистан, 1979. – 23 б.

<sup>31</sup> Нафасов Т. Топонимы Кашкадарьинской области: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1968. – 24 с.; Қишлоғингиз нега шундай аталган? – Тошкент: Фан, 1989. – 100 б.; Ўзбекистон топонимларининг изохли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – 288 б.

<sup>32</sup> Ишаев А. Манғит сўзининг этимологияси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент, 1958. – № 2. – Б. 63-65.

<sup>33</sup> Рахматов Т. Топонимия города Самарқанд и его окрестностей: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1973. – С. 8.

etnotoponimlar, neotoponimlar, oronimlar, gidronimlarga ajratgan<sup>34</sup>. Buxoro viloyati oykonimlarini tadqiq etgan olim S.Nayimovning ishlarida etnotoponimlarning mohiyatini ifodalovchi antropooykonimlar, etnooykonimlar, neooykonimlar kabi atamalar izohiga to'xtalib o'tilgan<sup>35</sup>. H.To'rayev "Buxoro toponimikasi" nomli darsligida viloyat hududidagi joy nomlarini tuman, mahalla, ko'chalarga ajratgan holda to'playdi. Ularning kelib chiqish tarixiga e'tibor qaratadi. *Yuzon, Janafarxona, Beshbo'ri, Xitoyon, Avg'onon, G'onchi, Buyrak, Qalluq* kabi yuzga yaqin joy nomlarining asosi etnonimlardan iboratligini ta'kidlaydi<sup>36</sup>. B.E.Kilichevning bir qator ilmiy ishlarida etnonim va etnotoponim munosabatlari tahlil etilgan<sup>37</sup>.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Buxoro viloyatidagi etnotoponimlarning semantik xususiyatlari**" deb nomlangan. Buxoro viloyati hududida etnotoponimlar soni 593tani tashkil etadi (bundan 72tasi takror uchraydi). ("**2.1-rasmga qarang**").

№	Toponim turi	Soni	№	Toponim turi	Soni
1	Shaharcha	9	12	Mahalla	55
2	Aylanma ko'cha	2	13	Muyulishli ko'cha	19
3	Ariq	2	14	Temir yo'l stansiyasi	1
4	Aholi punkti	231	15	Tog'(lik)	3
5	Berk ko'cha	6	16	Tog' tizmasi	1
6	Kanal	2	17	Tuman	1
7	Kollektor	2	18	Tabiiy maydon)	1
8	Ko'cha	196	19	Cho'l	1
9	Qabriston	24	20	Shoh ko'cha	10
10	Qishloq	22	21	Tabiiy gaz koni	3
11	Quduq	2	<b>Jami: 593</b>		
<b>Jami: 593 ta</b>					

### "2.1-rasm". Buxoro viloyati etnotoponimlarining mavzu guruhleri

Bobning birinchi paragrafi "*Etnotoponimlarning semantik-etimologik xususiyatlari*" nomini olgan. Ma'lumki, etnotoponim yasaliş negizi etnonimlar tashkil qilgan joy nomlaridir. Etnik nomlar tildagi eng qadimiy so'zlar sanaladi. Etnonimlarning asosiy ko'pchiligi toponim yoki toponim tarkibida etnik element

<sup>34</sup> Дусимов З. Топонимы Северного Хорезма: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1970. – С. 6-10.

<sup>35</sup> Наимов С.Н. Ойконимы Бухарской области: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. – С.11-18.

<sup>36</sup> То'rayev Н.Н. Вухоро топонимikasi. – Вухоро: Durdona, 2021. – 276 b.

<sup>37</sup> Киличев Б.Э. Вухоро этнотопонимлари ва уларнинг этимологик хусусиятлари// Вухоро davlat universiteti ilmiy axboroti. 2018. – № 1. – Б. 64-67; Etnonimlarning XX asrgacha o'rganilishi// Onomastika masalalari. – Toshkent: Navro'z, 2018. – № 4. – Б. 69-72 (M.Safarova bilan hammualliflikda); Etnonimlarning XIX asrdagi tadqiqi xususida//Onomastika masalalari. – Toshkent: Navro'z, 2018. – № 4. – Б. 72-76. (M.Safarova bilan hammualliflikda); Arab va mo'g'ul etnonim asosli toponimlar haqida//Tilshunoslik va metodika masalalari, – Toshkent: Muharrir, 2019. – Б. 116-118. (M.Safarova bilan hammualliflikda); Arg'un, chandir, saroy etnonimlari haqida// "Davlat tili – taraqqiyot va milliy yuksalish mezon" mavzusidagi respublika anjumani. Buxoro, 2020-yil,16-oktyabr. –Б,337-341; Вухоро etnooykonimlari. //Илм сарчашмалари. – Урганч, 2023. – Б. 164-168.

sifatida saqlanib qolgan. Buxoro viloyati hududi qadimgi davrlardan boshlaboq turli xalq, elat va qabilalar istiqomat qilib kelganligi bilan ajralib turadi. *Alotxona*. Buxoro tumanining Loshah mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi aholi punkti nomi bo'lib, ushbu toponim ikki qismdan iborat: alot+xona. "Alot" so'zi *arlot/allot/olot* shakllariga ega. "*Arlot*" qabila nomining dialektal shaklidir. Xona, uy yoki binoning devor bilan ajratilgan har bir alohida qismi, bo'lma. Aslida forscha-tojikcha bo'lgan "xona" so'zidan "ish joyi", "biror buyum turadigan, saqlanadigan joy" ma'nosidagi ko'plab so'zlar yasalgan (*to'pxona, nonxona, otxona, molxona* va b.). *Arlot* etnonimi X.Doniyorov ishida *olot* tarzida qayd etilgan<sup>38</sup>. S.Qorayev arlot qabilasi 92 bovli o'zbek qavmlari qatorida "Jome at-tavorix", "Ravzat us-safo", "Shayboniynoma"da, "Abdullanoma", "Shajarayi turk" yodnomalarida, Navoiy asarlarida tilga olingan<sup>39</sup>ligini qayd etgan<sup>39</sup>. Arlotlar o'zbek qavmlarining eng ko'p tarqalganlaridan biridir. Mazkur qavm Buxoro, Samarqand, Surxondaryo, Xorazm, va Qashqadaryo viloyatlarida, shuningdek, Afg'onistonning shimolida keng tarqalgan. Buxoro viloyatining Olot tumani nomi, Peshko' tumanidagi Alot aholi punkti nomi arlot bilan aloqador. Olot tumanida Eski Olot, Yuqori Olot toponimlari ham bor. *Arlot/Orlot/Olot/* – qishloq. Turkiy va mo'g'ul xalqlari uchun umumiy bo'lgan qabila. Chingizxon o'g'li Chig'atoyga taqdim etgan to'rta qabiladan biri – arlot. Bu qabila Afg'onistonning shimoliy qismiga o'rtnashib qolgan. Movarounnahrda arlotlar kam bo'lsa ham, nufuzli qabilalardan hisoblangan<sup>40</sup>. Arlot qabilasi 92 bog'li o'zbek qavmlari qatorida ko'plab tarixiy manbalarda tilga olingan. Qabila *allat, olot* shakllarida ham talaffuz qilinadi. Bu qishloqlar ham o'sha etnonimdan nom olgan bo'lishi kerak.

Bobning ikkinchi paragrafida "*Rang ifodalovchi so'z asosidagi etnonimdan shakllangan toponimlar*" tadqiq etilgan. O'rganish natijasida Buxoro viloyati toponimiyasidagi geografik nomlar tarkibida ot, fe'l, sifat kabi so'z turkumlarga oid birliklar faol, son, ravish, olmosh so'z turkumlari kam qo'llanishi aniqlandi. Etnotoponimlar tarkibida qo'llangan oq, qora, qizil, sariq singari lug'aviy birliklar o'tmishda turkiy xalqlar hayotida totemik, mifologik, diniy, badiiy, falsafiy tushunchalar muhim ahamiyatga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Toponimlar tarkibida oq va qora so'zlari faol. Kuzatishlarimiz natijasida, Buxoro viloyati etnotoponimlari tarkibida, asosan, *oq* va *qora* ranglari bilan aloqador nomlar uchradi va bu so'zlar asosida 25ta etnotoponim mavjudligi aniqlandi. *Oqpo'lat* toponimi tarkibidagi *oq* so'zida rang ifodalanmagan. Bu toponim etnonim asosida yuzaga kelgan, ya'ni *oqpo'lat* – "*po'lat urug'ining katta qismi yashaydigan maskan*"<sup>41</sup>. *Qoraxoni//Qaraxoni*. Manbalarda qayd etilishicha, Ko'lobda yashovchi arablarning *sholbof* urug'iga qarashli tarmoq nomi – qoraxoni deb atalgan<sup>42</sup>. Shuningdek, oqqipchoqlarning jag'altoy urug'iga qarashli tarmoqlardan birining nomi ham *qoraxon* deb yuritilgan. Shu sababdan aytish mumkinki,

<sup>38</sup> Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. Иккинчи нашри. – Тошкент, Наврўз, 2017. – Б. 100.

<sup>39</sup> Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – B. 164.

<sup>40</sup> Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – Москва: Наука, 1976. – С. 176-177.

<sup>41</sup> Adizova N. Buxoro tumani toponimlari. – Toshkent: Navro'z, 2020. – B. 56.

<sup>42</sup> Овезов Ж.К. Истории пленными мурчали// Труды ЮТКЭ. Том 5. – Ашхабад, 1955. – С. 113.

*qoraxon/qoraxoni* (Romitan va G'ijduvon tumanlaridagi joy nomlari shunday ataladi) etnonim hisoblanadi.

Bobning uchinchi paragrafi "*Miqdor ifodalovchi so'z asosli etnotoponimlar*" deb nomlangan. Ushbu faslda *to'rt, besh, olti, yetti, qirq, yuz, ming* so'zlari bilan bog'liq etnonimlar asosida shakllangan toponimlar tahlil qilingan. *Do'rman//do'rmon* – turkiy va mo'g'ul xalqlari uchun umumiy bo'lgan etnonim. Respublikamizning ko'pgina tumanlarida *Do'rman, Do'rmon* nomli qishloqlar uchraydi. Barchasining asosini *do'rman/do'rmon* etnonimi tashkil etadi. Hozirgi mo'g'ul tilida *do'rub / do'rbo'n – to'rt*. *To'rt* sanoq soni ma'nosidagi *do'rbo'n* so'zi bilan *do'rman/ do'rmon* etnonimini izohlash, tarkibiy qisimlarga ajratish, kelib chiqishini aniqlash qiyin. Turkiy va mo'g'ul xalqlari uchun umumiy bo'lgan etnonim (qabila, urug' nomi) da *man/mon* so'zi faol: *nayman, baqman/baxmal, shomon/shaman, yomon, oqman, qaraman, turkman, zarman...* Etnonimlarning tarkibidagi *man/mon* so'zining ma'nosi – *odam, kishi; odamlar, jamoa; urug'*. Aholisining etnik tarkibi qishloqning nomlanishiga omil bo'lgan<sup>43</sup>. Izlanishlarimiz asosida, Buxoro viloyatining Vobkent, Shofirkon, Romitan, Peshko', Jondor, Qorako'l tumanlarida qishloq, mahalla, ko'cha, aholi punktlari *Do'rman//Do'rmon//Do'rmanon//Do'rmon Arablari//Do'rmon Pattasi //Katta Do'rman* tarzida nomlanganligining guvohi bo'ldik. *Besh* so'zi bilan bog'liq nomlar yutimiz hududida ko'plab uchraydi, ammo Buxoro viloyatida juda kam tarqalgan (*Beshbo'ri – Buxoro tumani Gulshanobod q.*). *Qirq* so'zi bilan bog'liq nomlarga *qirq* – o'zbek xalqi tarkibiga kirgan yirik qabilalardan biri asos bo'lgan.

Bobning to'rtinchi paragrafida *biror predmetga asoslangan etnonimdan yuzaga kelgan toponimlar* o'rganilgan. O'tmishda totemistik qarashlar natijasida turli predmetlarning "ilohiylashishi", "muqaddaslashishi" mavjud bo'lib, ular ko'pgina kishilar jamoasi uchun totem vazifasini bajargan. Totem sifatida tanlanadigan predmetning ustun jihati asos qilib olingan. Totem sifatida *qush, turli hayvonlar, kundalik turmushga bevosita aloqador jismlar* tanlangan. Bu kabi predmetlar qadimgi insonlar hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan hamda ularning turmush tarzidagi yagona e'tiqod manbai sifatida xizmat qilgan. Qadimgi kishilar totem deb qabul qilingan predmetga o'z hayotlarining egasi, xo'jayini sifatida qaraganlar<sup>44</sup>. Turkiylarda ham ba'zi hayvonlar, qushlar totem sifatida tanlanganligi haqidagi ma'lumotlar tarixiy manbalar orqali bizgacha yetib kelgan. Masalan, Abulg'oziy Bahodirxonning "Shajarayi tarokima" asarida, O'g'uzxon avlodlari davrida *lochin, qarchig'ay, shunqor, qarg'a, burgut, ukki, tuyg'un, turumtoy, xumoy* kabi qushlar totem sifatida muqaddaslashtirilgan<sup>45</sup>. Buxoro vohasi ham ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, qadimda unda yashovchi kishilar ham ma'lum bir totemistik qarashlarga ega bo'lishgan. Buni bugungi kunda joy nomi sifatida uchraydigan etnonimlardan anglash mumkin. Viloyat hududida qirqqa yaqin obyektning nomlanishida totemistik etnonimlar asos bo'lganligi aniqlandi. Jumladan, *Bahrin* – turkiylashgan mo'g'ul qabilasi nomi bo'lib, qadimiy turkiy

<sup>43</sup> Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Мухаррир, 2009, – Б. 99.

<sup>44</sup> <https://chto-eto-takoe.ru/totem>

<sup>45</sup> Абулғозий Баҳодирхон. Шажарайи тарокима. – Тошкент: Чўлпон, 1995. – Б. 48.

tilda katta *yirtqich qush*, *lochinni* atagan. Buxoro viloyatining Vobkent, Romitan tumanidagi ko‘cha va aholi punkti *Bahrin*, Olot tumanidagi aholi punkti *Bahrinbayot*, Vobkent tumandagi aholi punkti *Bahrinobod* deb nomlangan. Shuningdek, *yobi//yobu* – qabila va urug‘ nomi bo‘lib, bu so‘z “*oddiy*”, “*jaydari ot*” ma’nosini ifodalagan. Buxoro viloyati hududida ushbu etnos bilan bog‘liq joy nomlari *Yobi* shaklida Jondor va Kogon tumanlarida, *Yobuxona* shaklida Buxoro tumanida uchrashi aniqlandi.

